

XALQARO MEHNAT MIGRATSIYASI: UNING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI (YEVROPA ITTIFOQI MISOLIDA.)

Tursunpo'latov Muhammadyor Shuhrat o'g'li

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti

Xalqaro iqtisodiyot va menejment fakulteti

Magistratura 1-kurs

Tel: +998998712553

Email: tursunpo'latovmuhammadyor05@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6817461>

Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida aholi migratsiyasining o'sishi demografik muammolarni hal qilishga yordam beradi va mehnat resurslarini shakllantirishga ta'sir qiladi. Boshqa tomondan, nazoratsiz migratsiya globallashuv ta'siri ostida ijtimoiy xavflarning kuchayishiga, Yevropa Ittifoqida birdamlik tamoyilining yemirilishiga va integratsiya jarayonining o'zgarishiga olib keladi. Bugungi kunda, keskin kontekstda Yaqin Sharq, Shimoliy Afrika hamda Sharqiy Yevropa davlatlaridan kelgan muhojirlar bilan bog'liq muammolar ortib borayotgani tufayli, Yevropa davlatlari ham migratsiya oqimlarini tartibga solishning amaldagi normalari tizimi samarasizligini anglab yetdi. Migratsion oqimlar tarkibidagi o'zgarishlar, musulmon muhojirlar sonining o'sishi, ularning integratsiyalashuvi va assimilyatsiyasidagi qiyinchiliklar Yevropa Ittifoqi mamlakatlari uchun asosiy muammolardan biriga aylanmoqda.

Kalit so'zlar: Mehnat migratsiyasi, Yevropa ittifoqi, migratsion inqiroz, integratsiya jarayoni, migratsion siyosat, assimilyatsiya.

Mehnat migratsiyasi nima va nega Yevropa uchun katta ahamiyatga ega?

Xalqaro mehnat migratsiyasi deganda, odatda, mehnat resurslarining davlatlarning milliy chegaralari bo'ylab harakatlanishi majmui tushuniladi (mehnat yoshidagi odamlarning emigratsiyasi va immigratsiyasi). Mehnat migratsiyasi davlat iqtisodiyoti uchun juda muhim omillardan biri hisoblanadi. G'arb mamlakatlarida xalqaro mehnat migratsiyasi va tegishli bandlik muammosi jahon iqtisodiy jarayonidagi eng muhim muammolardan biridir.

YEVROPADAGI NOMUKAMMAL MIGRATSION SIYOSAT

Bugungi kunda, Yevropa Ittifoqi davlatlarida migratsiyaning halokatli darajada yuqoriligi muammosi aniq va shubhasizdir. Sharqiy Yevropa, xususan, Ukrainadan, shuningdek, Sharqiy va Shimoliy Afrikadan migrantlar o'z mamlakatlaridagi og'ir ijtimoiy sharoitlardan qutilish, va shuningdek, ish toppish va yashash uchun Yevropani juda qulay deb hisoblashadi. Yevropa davlatlari hukumatlari Yevropa Ittifoqining mavjud migratsion siyosatining nomukammalligidan habardor. 2015-yilda sodir bo'lgan migratsion inqiroz

bunga asosiy dalillardan biri hisoblanadi, albatta. Muammolar yetarli huquqiy bazaning yo'qligi sabab kelib chiqadi.

Yevropa Ittifoqining joriy migratsion siyosati shakllanishi

Xalqaro mehnat tashkilotining statistik ma'lumotlariga ko'ra, G'arbiy Yevropa hissasiga dunyodagi xorijiy ishchi kuchining deyarli 25% to'g'ri keladi. Yaqinda chet ellik ishchilarhar yiliga 500-600 ming kishiga ko'paydi (oila a'zolarini hisobga olmaganda). Hozirda geosiyosiy sabablarga ko'ra bu raqam millionga oshdi va tendensiya shuni ko'rsatadiki, bu ko'rsatkich yanada tez sur'atlar bilan o'sib boradi. Bundan tashqari, Yevropa Ittifoqining sharqiy qismidan kelgan muhojirlar, shuningdek, Ukrainadan kelgan qochqinlar bunga kiritilmagan. Faqatgina Polsha hududida rasman 500 000 dan ortiq Ukraina fuqarolari ro'yhatga olingan. Ularning soni o'z mamlakatlari iqtisodiyotining sustligi tufayli tez o'sib bormoqda. Muhojirlar asosan Germaniya, Fransiya, Buyuk Britaniyaga boradilar. Shu bilan birga, Yevropa davlatlarining o'zlari o'rtasida mamlakatlari hududida muhojirlarni qabul qilish masalasi bilan bog'liq mojarolarni qayd etish joiz. Mamlakatlarning bunday ziddiyatli holati munosabatlarning buzilishiga olib keladi. Buning sababi migratsiya siyosatining samarasizligi, tegishli huquqiy asos yo'qligi. Shunday qilib, 2015-yilgi Yevropa migratsiya inqirozi yana bir bor bu muammoni fosh qildi. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, eng ko'p muhojirlarni aynan Germaniya, Italiya va Fransiya kabi davlatlar qabul qilganlar. (BBC, 2018). Shunga ko'ra, migratsion inqiroz davrida eng katta bosimni ham aynan shu mamlakatlar o'z zimmlariga olishdi.

Yevropa mehnat bozoridagi muhojirlar va ularning asosiy muammolari

Yevropa Ittifoqi mehnat bozori, innovatsion texnologiyalar, mehnat unumdorligi, ijtimoiy kafolatlar va standartlarining yuqori ulushiga qaramay, bir qator o'ziga xos muammolarga ega. Avvalo, shuni ta'kidlash kerakki, qat'iy qonuniy gender tengligiga qaramay erkaklar va ayollar ish haqi o'rtasida sezilarli farq bor. Bu uzoq vaqtdan beri ittifoqning hukumat tuzilmalarini qattiq tashvishga solmoqda. Masalan, Italiyada ish haqi farqi 10% ga yetadi, Germaniyada 20% dan oshadi, Avstriyada esa hatto 25 % dan yuqori. Ayniqsa Yevropa Ittifoqidan tashqaridan kelgan migrant ayollar eng ko'p qiyinchiliklarni boshdan kechirishadi. Bu ayollar ikki tomonlama diskriminatsiyaga uchraydilar.

Rivojlanishning yuqori sur'atlariga va kuchli ijtimoiy kafolatlar mavjudligiga qaramay, Yevropa mamlakatlarida mehnat bozoridagi kamsitishlar eng ko'p bo'lgan aholi qatlamlari bu - ayollar va yoshlar. Shunday qilib, har yili migrant ayollarni ish bilan ta'minlash Yevropa hududida 45 % etib baholandi. Bu esa boshqa mamlakatdan kelgan ayollarning yarmidan ko'pi ishsiz bo'lib qolayotganidan dalolat beradi. (EULabourForceSurvey, 2011). Shunday qilib,


Yevropa Ittifoqida migratsiyani tartibga solish masalasi bilan bog'liq muammolar ancha ko'p. Shuni ta'kidlash kerakki, Yevropa mamlakatlari allaqachon mavjud qator chora-tadbirlarni amalga oshirdi va bir qancha muhim natijalarga erisha oldi.

Yevropa muhojirlar inqirozi

Yevropa muhojirlar inqirozi - 2015-yilda qochqinlar va muhojirlarning Yevropaga ko'chishi sezilarli darajada oshgan davr bo'ldi. O'shanda 1,3 million kishi boshpana izlash uchun qit'aga kelgan. Bu Ikkinchi Jahon Urushi davridan buyon qayd etilgan eng yuqori natija hisoblanadi, Suriya, Iroq va Afg'oniston kabi bir qator davlatlardagi notinch vaziyat shu mamlakatlarda istiqomat qiluvchi xalqni boshqa o'lkadan boshpana izlashga undadi. Xalqaro Migratsiya Tashkiloti (XMT) hisob-kitoblariga ko'ra, 2015-yilda dengiz orqali 1 011 700 dan ortiq, quruqlik orqali esa deyarli 34 900 muhojir kelgan.

Top 10 origins of people applying for asylum in the EU

First-time applications in 2015, in thousands



Source: Eurostat

Yevropa muhojirlar inqirozi davrida qayd etilgan statistika

Manba: [Eurostat](#)

XMT ma'lumotlariga ko'ra, 2015-yilda 3770 dan ortiq muhojir O'rta yer dengizini kesib o'tishga uringanida halok bo'lgan. Ularning aksariyati Shimoliy Afrikadan Italiyaga o'tishda, 800 dan ortig'i esa Egey dengizi orqali Turkiyadan Gretsiyaga o'tishda halok bo'lgan. Yoz oylari odatda eng ko'p o'lim holatlari sodir bo'ladi, chunki bu Yevropaga borishga urinayotgan muhojirlar uchun eng

gavjum vaqt. Ammo 2015-yilda muhojirlar uchun eng halokatli oy aprel oyi bo'ldi, unda 800 ga yaqin odam bo'lgan qayiq Liviya yaqinidagi dengizda ag'darilib ketdi. Odamlarning haddan tashqari ko'pligi falokat sabablaridan biri bo'lgani taxmin qilinmoqda.

Xulosa qilib shuni ta'kidlash kerakki, Yevropa o'zining zamonaviyligini saqlab qolish maqsadida migrantlar uchun ijtimoiy xavfsizlik normalarini qayta ko'rib chiqishga majbur, chunki mehnat muhojirlari nafaqa va ijtimoiy uy-joy olish uchun emas, ishlash uchun boradilar. Muhojirlarga iloji borich barcha minimal yashash sharoitlari kafolatlanishi kerak. (Til o'rganish, ish toppish, malaka oshirish shular jumlasiga kiradi, albatta)

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. https://assets.ey.com/content/dam/ey-sites/ey-com/en_gl/topics/assurance/assurance-pdfs/ey-green-recovery-report.pdf
2. https://www.ey.com/en_gl/attractiveness/20/how-is-uncertainty-reframing-the-future-of-investment-in-europe
3. <https://rail-research.europa.eu/>
4. <https://www.switchtogreen.eu/the-eu-green-deal-promoting-a-green-notable-circular-economy/#:~:text=The%20European%20Green%20Deal%20aims,a%20just%20and%20inclusive%20transition.>
5. <https://ec.europa.eu/environment/green-growth/>
6. 1. <file:///C:/Users/user/Downloads/migratsiya-v-evrosoyuze.pdf>
7. <file:///C:/Users/user/Downloads/migratsionnye-protsessy-v-evrocoyuze-novye-vyzovy-i-riski.pdf>
8. <https://ec.europa.eu/eurostat/web/main/data/database>
9. <https://www.bbc.com/news/world-europe-34131911>